

1-TOM, 10-SON

UO'K.631.52:635.4

**RUKOLA-FOYDALI XUSUSUYATLARGA EGA KAM TARQALGAN
SABZAVOT EKINIDIR**

**РУКОЛА – МАЛОРАСПРОСТРАНЕННАЯ ОВОЩНАЯ КУЛЬТУРА С
ПОЛЕЗНЫМИ СВОЙСТВАМИ**

RUCOLA IS A RARE VEGETABLE CROP WITH USEFUL PROPERTIES

Qarshiyeva S.X.- Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo tajriba stansiyasi.O'zbekiston.

Eshkurbonova N.A. - Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institute.O'zbekiston.

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston janubiy sharoitida kam tarqalgan sabzavot ekini rukolani quruq subtropik mintaqada yetishtirish, uning hosildorligi va muhim xo'jalik belgilarining namoyon bo'lishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: rukola, Grasiya navi, ekish sxemasi, hosildorlik, belgilar o'zgaruvchanligi.

Аннотация

В статье приведены сведения о выращивании малораспространенной овощной культуры руколы в зоне сухих субтропиков, ее продуктивности и проявления хозяйственно полезных признаков.

Ключевые слова: рукола, сорт Грация, схема посадки, урожайность, изменчивость признаков.

Annotation

The article provides information on the cultivation of a rare vegetable crop of arugula in the zone of dry subtropics, its productivity and the manifestation of economically useful traits.

Key words: arugula, Grazia variety, planting pattern, yield, trait variability.

Kirish. Rukola – karamdoshlar oilasiga mansub bir yillik kam tarqalgan sabzavot ekinidir. Rukolaning bir nechta nomlari bo'lib, ular quyidagilar: roket-salat, indau, eruka, arugula va yana bir necha nomlar bilan ataladi. Rukola Afrikaning Shimoliy qismi hamda Evropada yovvoyi holda o'sadi, u kichik Osiyodan Markaziy Osiyo va Hindistongacha tarqalgan [1,2,5].

O'zbekistonda esa rukolani faqatgina 2016-yildan boshlab yetishtira boshlashdi.Uning tarkibida foydali xususiyatlarga ega bir qancha vitaminlar mavjud



1-TOM, 10-SON

[3]. Shuni ta'kidlash joizki, mahsulot uchun 10-15 sm uzunlikdagi barglari kesib olinadi va oziq-ovqat sanoatida foydalaniladi. [4].

Uslublar. Tadqiqotlar Sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy-tajriba stantsiyasida olib borildi. Tadqiqot ob'yekti etib, rukolaning Grastiya navi olindi. Dala tajribalarini o'tkazish, ekinni ekish, parvarish qilish, hosilni yig'ish, hisoblash va tahlillar umumqabul qilingan quyidagi uslublar asosida olib borildi:

- metodicheskie ukazaniya po ekologicheskomu ispitaniyu ovoshnix kul'tur v otkritom grunte (M., VNISSOK, 1987. Chast 1);

- metodicheskie ukazaniya po seleksii zelennix, pryano-vkusovix i mnogoletnix ovoshnix kul'tur (M., VIR-VNISSOK, 1987);

- metodika polevogo opita (Dospexov B.A., 1985)

Asosiy qism. Rukolaning Grastiya navi urug'lari 2022 yil 31 yanvar kuni ochiq dalaga sepildi va polietilen plenka bilan mulchalandi. Ushbu ekin urug'lari ikki maqsadda sepildi:

1. ko'k massa hosildorligini aniqlash uchun
2. urug'chilik texnologiyasini ishlab chiqish uchun

Ekish 70x5:2 sxemada amalga oshirildi. Bunda bitta o'simlikning oziqlanish maydoni 0,035 m² ni tashkil etadi. 1 ga maydonda 571 428 ta o'simlik joylashadi. 1-jadvalda fenologik kuzatuvlar natijasi keltirilgan. Rukola Grastiya navida urug'lar 31 yanvarda ochiq dalaga ekilganda ko'chatlarning yoppasiga unib chiqishidan barglarning texnik pishishigacha 57 kun talab etildi. Bu davr davomiyligining biroz uzayishi bahorgi mavsumda havo haroratining biroz past bo'lishi bilan izohlanadi.

1-jadval

Rukola ekini bo'yicha olib borilgan fenologik kuzatuvlar natijasi, 2022 y.

Ekin turi	Nav nomi	Unib chiqishi		1-nchi chin barg paydo bo'lishi		2-nchi chin barg paydo bo'lishi		Texnik pishib etilishi
		10%	75%	10%	75%	10%	75%	
Rukola	Grastiya	15.02	17.02	25.02	27.02	05.04	08.04	15.04

Barglar texnik pishib yetilganda rukolaning o'lchamlari aniqlandi. Rukolaning Grastiya navida barglar eni 2,0-3,5 atrofida bo'ldi. Ushbu belgining o'zgaruvchanligi



1-TOM, 10-SON

25,11% ni tashkil etdi va bu ko'p o'zgaruvchan belgi bo'lib hisoblanadi. Bu belgi bo'yicha tanlash ishlari olib borish juda katta samara bermaydi (2-jadval).

2-jadval

Rukola o'simligi bargining eni, 2022 g.

T/r.	Barg plastinkasi eni, sm	X-x	(X-x) ²
1	2,0	-0,7	0,49
2	2,0	-0,7	0,49
3	3,0	0,3	0,09
4	3,5	0,8	0,64
5	3,5	0,8	0,64
6	2,0	-0,7	0,49
7	3,0	0,3	0,09
8	3,0	0,3	0,09
9	3,5	0,8	0,64
10	2,0	-0,7	0,49
O'rtacha	2,7		4,15

Rukola o'simligi bargining uzunligi 8-12 sm (o'rtacha 9,7 sm) ni tashkil etdi (3-jadval). Bu belgining o'zgaruvchanligi 16,28 % ni tashkil etdi va bu o'rtacha o'zgaruvchan belgi bo'lib hisoblanadi. Bu belgi bo'yicha tanlash ishlari olib borish anchagina samarali bo'ladi.

3-jadval

Rukola o'simligi bargining uzunligi, 2022 g

T/r.	Barg plastinkasi uzunligi, sm	X-x	(X-x) ²
1	8	-1,7	2,89
2	9	-0,7	0,49
3	8	-1,7	2,89
4	10	0,3	0,09
5	9	-0,7	0,49
6	11	1,3	1,69
7	10	0,3	0,09
8	8	-1,7	2,89
9	12	2,3	5,29



1-TOM, 10-SON

10	12	2,3	5,89
x	9,7		$\Sigma=22,7$

Eng muhim belgilardan biri bu bitta o'simlikdan olingan barglar soni hisoblanadi. Bitta rukola o'simligidan olingan barglar soni 9-16 tani va o'rtacha miqdori 13 donani tashkil etdi (4-jadval). Bu muhim belgining o'zgaruvchanligi ham o'rtacha bo'lib 18,07% ni tashkil etdi. Bu belgi bo'yicha ham tanlash ishlari olib borish anchagina samarali bo'ladi.

4-jadval.

Bitta o'simlikdagi barglar soni, 2022

T/r.	Bitta o'simlikdagi barg soni, dona	X-x	(X-x) ²
1	10	3	9
2	12	1	1
3	9	4	16
4	13	0	0
5	14	-1	1
6	15	-2	4
7	13	0	0
8	16	-3	9
9	12	1	1
10	16	-3	9
x	13		$\Sigma=50$

Yana bir eng muhim belgilardan biri bu bitta o'simlik mahsuldorligi yoki bitta o'simlik vazni hisoblanadi. Bitta o'simlikdan olingan barg vazni rukola o'simligida 8-15 g atrofida bo'ldi va o'rtacha 10,7 g ni tashkil etdi (5-jadval). Bu belgining o'zgaruvchanligi katta bo'ldi va variastiya koeffisienti 24,85% ni tashkil etdi. Bu belgi bo'yicha tanlash ishlari olib borish uncha katta samara bermasligidan dalolat beradi.

5-jadval



1-TOM, 10-SON
Bitta o'simlik vazni, 2022

T/r.	Bitta o'simlik vazni,g	X-x	(X-x) ²
1	11	0,3	0,09
2	8	-2,7	7,29
3	12	1,3	1,69
4	10	-0,7	0,49
5	15	4,3	18,49
6	9	-1,7	2,89
7	8	-2,7	7,29
8	11	0,3	0,09
9	8	-2,7	7,29
10	15	4,3	18,49
x	10,7		$\Sigma=64,1$

Xulosalar. Rukolaning Grastiya navi ekish uchun tavsiya etiladi. Rukolani 70x5:2 sm sxemada ekilganda 1 ga maydonda 571 428 ta o'simlik mavjud bo'lganligini va bitta o'simlikdan olingan ko'k massa mahsuldorligi 10,7 g ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, yanvar oyi oxirida ekilgan rukola hosildorligi 6,1 t/ga ni tashkil etadi.

TLAR RO'YXATI

3.Ludilov V.A., Ivanova M.I., Kursheva J.V. Eruka posevnaya (indau) i dvuryadnik tonkolistniy-novie listovie ovoshnie kul'turi // Gavrish.-2009.-№1.

4.Siunel' M.M., Siunel' A.M., Baranov A.V., Koval'chuk M.V., Trusevich A.V. Redis i 12 zelenix kul'tur/-M.: OOO «NIISOK», 2021.-440 s.

5. S.A.Yunusov – Ko'kat sabzavotlar yetishtirish.Agrobank 100 ta kitob to'plami.18-kitob.Toshkent. Tasvir 2021 yil.

